

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“ MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” FAKULTETI

“MASHINASOZLIK TEXNOLOGIYASI” KAFEDRASI

DIPLOM LOYIHASI BO’YICHA

### T U S H I N T I R I S H X A T I

**Diplom loyihasining mavzusi:** “Irmash-mexanika” MCHJ sharoitlari uchun “1500107 Serga” detalini tayyorlash texnologik jarayonini va operatsiyalarining texnologik ta’minot vositalari konstruktsiyalarini ishlab chiqish.

**Yo’nalish:** Mashinasozlik texnologiyasi, mashinasozlik ishlab chiqarishini jixozlash va avtomatlashtirish

4-kurs 150-15 guruh talabasi:	S.Qodirov
Kafedra mudiri:	X.Akbarov
Rahbar:	M.Xodjimuxammedova
Maslaxatchilar:	
Texnologik qismi:	M.Xodjimuxammedova
Konstruktorlik qismi:	M.Xodjimuxammedova
Xayot faoliyati xavfsizligi qismi:	A.Xojjiyev
Iqtisodiy qismi:	Z.Teshaboyeva

Andijon – 2019 yil

## MUNDARIJA

KIRISH .....	
1. UMUMIY QISM .....	
1.1. Detalni xizmat vazifasi .....	
1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash .....	
1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari ....	
2. TEXNOLOGIK QISM .....	
2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash .....	
2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish .....	
2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi .....	
2.4. Kesish maromlarini hisoblash .....	
2.5. Vaqt me'yorini xisobi .....	
3. KONSTRUKTORLIK QISM .....	
3.1. Dastgoh moslamasini bayoni va hisobi .....	
3.2. Kesuvchi asbobni bayoni va hisobi .....	
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI .....	
5. IQTISODIY QISM .....	
XULOSA .....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....	
ILOVALAR .....	

## KIRISH

Hozirda jahon bozorida „UZ” belgisi ostidagi mashinalar o'z haridorlariga yetib bormoqda va yillardan yilga miqdori, sifati bo'yicha raqobatbardosh yirik kompaniyalar bilan bellashmoqda. Bu esa mamlakatimizning iqtisodiyotining yanada rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Mustaqillikdan oldin mamlakatimizda mashinasozlik tarmog'ida „qishloq xo'jalik mashinasozligi” tarmog'ining ahamiyati yuqori edi. Chunki mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish yo'li agrar sohaga ixtisoslashgan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu sohaga jiddiy e'tibor berildi va buning samarasi o'laroq endilikda Mashinasozlik sanoati iqtisodiyotimizning ajralmas qismiga aylandi.

Davlatimizning dunyodagi sanoati rivojlangan mamlakatlaridan o'z o'rnini egalallashda yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” da ko'rsatilgan asosiy masaladir. Bunday mutaxassislar zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni, loyihalashni, avtomatlashtirilgan loyihalash tizimlaridan foydalanishni, raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgohlar asosida yuqori unumdorlikdagi moslanuvchan ishlab chiqarish modullarni va avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama bilishlari va ulardan foydalana olishlari kerak. Shuning uchun diplom loyixasi zamonaviy mashina va jihozlarni ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or texnika va yuqori texnologiyalardan foydalangan holda bajarilishi kerak.

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha xarakat strategiyasi xozirgi kunda dolzarb xamda axoli va tadbirkorlarni tashvishga solayotgan masalalarni kompleks o'rganish, konunchilik, xukukni muxofaza kilish amaliyoti va xorijiy tajribani taxlil kilish yakunlari bo'yicha ishlab chikilgan. Bunday oqilona rejani amalga oshirish davlatimizning moddiy bazasiga chambarchars bog'liq. Bugungi kunda O'zbekiston jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatdir. Davlatimiz rahbariyati tomonidan tanlab olingan taraqqiyot strategiyasi raqobatdosh, eksportbop hamda import o'rnini bosuvchi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan bo'lib, u sanoatning barqaror va mutanosib ravishda o'sishi hamda ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash asosida uning yetakchi tarmoqlarini rivojlantirishni ko'zda tutadi. Davlatlarning moddiy bazalarni boyitish maxsulot ishlab chiqarish unumdorligini oshirishga boliq shuning uchun xozirgi davrda ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun barcha ishlar tomonidan yana bir qator qaror va farmoishlar qabul qilindi. Jumladan Qorqalpog'iston viloyatida tashkil qilanayotgan cho'yan quyish zavodi , Angren cho'yan quyish zavodi, Jizzax mashinalar ishlab chiqarish zavodi. Avtomobilsozlik, shu jumladan,

dvigatelъ hamda ehtiyot qismlar ishlab chiqarish, neftъ-gaz mashinasozligi, zamonaviy qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati, temir yo'l mashinasozligi, maishiy elektronika asboblari ishlab chiqarish, farmatsevtika va mikrobiologiya, oziq-ovqat, to'qimachilik, charm-poyabzal sanoati hamda boshqa bir qator mutlaqo yangi tarmoqlarning yo'lga qo'yilishi bunga zamin yaratdi.

## 1. UMUMIY QISM.

### 1.1 Detalni xizmat vazifasi.

Menga topshiriq sifatida berilgan “Serga” detali vilkasimon detal bo’lib, qo’shimcha tayanch vazifasini bajaradi. Uning materiyali Сталь 45 GOST 1050-88 bo’yicha, og’irligi  $m=1050$  g.

Detalning asosiy yuzasi I teshik bo’lib, O’lcham aniqligi 7 kvalitetda, yuza g’adir-budirligi Ra 1.25 mkm. G markaziy teshik o’lcham aniqligi bo’yicha 8 kvalitetda, g’adir budurligi Ra 1.25 mkm. E1 va E2 yuzalar g’adir-budirligi Ra 6.3 mkm, o’lcham aniqligi 12 kvalitetda. Qolgan yuzalar g’adir-budirligi Rz 40 mkm, o’lcham aniqligi 14 kvalitetda.

Сталь 45 ning kimyoviy tarkibi (GOST 1050-88)

1.1-jadval

Po’lat markasi	C, %	Si, %	Mn, %	Cr, % dan ko’p emes
Сталь 45	0.42÷0.50	0.17÷0.37	0.50÷0.80	0.25

Сталь 45 ning mexanik xossalari

1.2-jadval

Po’lat markasi	Mexanik xossalari				
	$\sigma_T$ , N/mm <sup>2</sup>	$\sigma_B$ , N/mm <sup>2</sup>	$\delta$ , %	$\Psi$ , %	HB
Сталь 45	355	600	16	40	229

### 1.2. Ishlab chiqarish turini aniqlash.

Har bir mashinasozlik korxonasi bir yil davomida ishlab chiqarishga kerak bo’lgan mahsulot va zaxira qismlarining ma’lumotiga ega. Bu ma’lumot ishlab chiqarish dasturi deb ataladi va unda ma’lumotni turi, soni, o’lchami va materiali to’g’risida ham etarlicha axborot bor. Korxonaning umumiy ishlab chiqarish dasturiga asosanssexlar bo’yicha ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Har bir mahsulot umumiy ko’rinishining chizmasi, detallarning ishchi chizmasi, yig’uv chizma, spetsifikatsiyalar va texnik talablar bilan boyitiladi.

Ishlab chiqarish dasturining xajmi, mahsulot tasnifi, jarayonning texnik va iqtisodiy shartlariga asoslan shartli ravishda uchta ishlab chiqarish turi mavjud: donali, seriyali, yalpi. Har bir ishlab chiqarish turi o’ziga xos tashkiliy shaklga ega. Shuni aytish kerakki, bitta korxonada xar-hil ishlab chiqarish turlari bo’lishi mumkin.

Ishlab chiqarish turi va unga to'g'ri keladigan ishni tashkil qilish shakli texnologik jarayonni tasnifini hamda uning tuzilishini aniqlaydi. SHuning uchun ham ishlab chiqarish turini aniqlash detalga mexanik ishlov berish texnologik jarayonni loyixalashni boshlang'ich asosiy bosqichidir. Ishlab chiqarish turini jadvallar usuli bilan aniqlaganda detalning og'irligi va yillik ishlab chiqarish dasturi talab qilinadi.

Bunda  $N=5000$  dona va  $m=1050$  g bo'lganda ([6],3.1-j,24b) ishlab chiqarish turi o'rta seriyali deb aytishimiz mumkin.

Berilgan yillik dasturga asosan ishlab chiqarish qadamini quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi.

$$t_b = \frac{F_g \cdot 60}{N} = \frac{4029 \cdot 60}{5000} = 48 \frac{daq}{dona}$$

bu erda:  $F_g = 4029 soat$  – dastgohlarni bir yillik haqiqiy ishlash vaqti fondi.

Bo'limdagi ish tartibi 2 smenali. Seriyali ishlab chiqarish turida detallarni partiyalarga bo'lib ishlov berish sababli partiyadagi detallar sonini hisoblab topish talab qilinadi.

$$n = \frac{N \cdot a}{F} = \frac{5000 \cdot 3}{254} = 59 \text{ dona}$$

bu erda:  $a=3,6,12,24$  kun – partiyadagi detallarni ishlov berishga kiritilish davri;  $F=254$  kun – bir yildagi ishchi kunlar soni.

### 1.3. Detal tuzilishining texnologikligi va uning miqdoriy ko'rsatkichlari

Ishlab chiqarish ob'ekti bo'lgan mahsulot konstruksiyasini texnologikligi quyidagi nuqtai nazarlar bo'yicha taxlil qilinadi: qo'llaniladigan materialning ko'rinishi va turi, xom–ashyoni ko'rinishi va tayyorlash uslublari, qo'llaniladigan ishlov berish yig'ish tayyorlash korxonasiidan tashqarida montaj qilish va sinashni texnologik usullari va ko'rinishlari, progressiv texnologik jarayonlar, shuningdek kam mehnat va energiya sarflanadigan, chiqindisiz tipaviy texnologik jarayonlardan foydalanganlik darajasi, jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish imkoniyati, unifikatsiyalangan yig'ish birikmalari va detallarni qo'llash darajasi, tayyorlovchi korxonani o'ziga xos xususiyatlari, talab qilingan ishchilar klafikatsiyalari.

Detalning ishchi chizmasini taxlil qilish shuni ko'rsatadiki detailni ishchi vazifasini o'zgartirmagan holda uni tuzilishi elementlarini qisqartirish imkoniyati yo'q. Detal tuzilishi xom–shayo olishni ratsional usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi. Ishlov berishda qiyinchilik tug'diradigan va maqsadga muvofiq bo'lmagan yuzalar aniqlanadi. Zagotovka tuzilishi va mustaxkamligi va uni unumdorligini yuqori bo'lgan ishlov berish usullaridan foydalanishni

chegaranmaydi. Materialni ishlov beriluvchanligi tig'li va obraziv asboblardan foydalanishga imkon beradi. Texnologiklik va aniqlik bo'yicha taxlil texnologik jarayon marshrutini tuzish dastgohlarni nazorat ishlarini aniqlashga negiz bo'lib qoladi.

Detal konstrutsiyasini texnologikligi — konstrutsiyasini shunday xossalari yig'indisiki bunda bir xil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bir xil sharoitda tayyorlangan va ekspluatatsiya qilinadigan o'xshash konstruksiyasiga ega bo'lgan maxsulotga nisbatan yanada samarador texnologiyalar bilan ishlov berish, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Detalni texnologilikka taxlil qilish ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashni muxim masalasidir.

Bajarilgan taxlil quyidagi koeffitsentlarni aniqlashga imkon beradi.

Konstruktiv elementlarni unifikatsiyalanganlik koeffitsenti.

$$K_{y.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e}$$

bu erda:

$Q_{y.e}$  va  $Q_e$  unifikatsiyalangan konstruktiv elementlar soni va detalni hamma elementlar soni

$$K_{m.e} = \frac{Q_{y.e}}{Q_e} = \frac{3}{7} = 0.43$$

Ishlov berish aniqligi koeffitsenti.

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}}$$

bu erda:

$$A_{yp} = \frac{(n_1 + 2n_2 + 3n_3 + \dots + 19n_{19})}{\sum_1^{19} n_i} = \frac{7 \cdot 1 + 8 \cdot 1 + 12 \cdot 1 + 14 \cdot 8}{11} = 12.6$$

$$K_a = 1 - \frac{1}{A_{yp}} = 1 - \frac{1}{12.6} = 0.92$$

Yuzalar g'adir-budurlik koeffitsenti.

$$K_{u} = \frac{1}{III_{yp}}$$

bu erda:

$$III_{yp} = \frac{(0.01n_1 + 0.02n_2 + \dots + 40n_{13} + 80n_{14})}{\sum_1^{14} n_i} = \frac{1.25 \cdot 2 + 6.3 \cdot 2 + 8 \cdot 5}{9} = 6.1$$

$$K_{u} = 1 - \frac{1}{III_{yp}} = 1 - \frac{1}{6.1} = 0.84$$

Bajarilgan taxlil yig'uv birikmaning berilgan detalni to'g'ri loyixalashga imkon beradi

## **2. TEXNOLOGIK QISM**

### **2.1. Zagotovka turini tanlash va uni olish usulini aniqlash.**

Zagotovkalar toza va xomaki zagotovkalarga bo‘linadi. Toza zagotovka deganda tayyorlangandan keyin kesib ishlanmaydigan, o‘lchamlari va tozaligi tayyor detal chizmasida ko‘rsatilgan o‘lcham va tozalikka to‘g‘ri keladigan zagotovkalar tushuniladi. Xomaki zagotovkalar chizma talablariga muvofiq keladigan o‘lcham, aniqlik va tozalikdagi detal hosil qilish maqsadida qo‘yim kesib olish uchun mexanik ishlanishi zarur bo‘lgan zagotovkalardir.

Mashina detallari uchun zagotovkalar asosan quyidagi usullar bilan tayyorlanadi:

qora va rangli metallardan quyish yo‘li bilan;

bosim bilan ishlash (bolg‘alash va shtamplash) orqali;

qora va rangli metallar prokatidan;

metallokeramikadan (kukun metallurgiyasi yo‘li bilan);

payvandlash – zagotovka qismlarini bir butun qilib ulash yo‘li bilan;

metallmas materiallardan (plastik massalar va boshqalardan).

Zagotovka olish usulini tanlash, detalni o‘lcham va materiali, ishchi vazifasi, uni tayyorlashga texnik talablar, yillik dastur va umumiy tuzilishi kabi omillar belgilab beradi. Bu masalani xal qilishda zagotovka o‘lchami va tuzilishi detalni o‘lcham va tuzilishiga maksimal yaqin bo‘lishini ta‘minlash kerak. Lekin shuni unutmaslik kerakki, zagotovka aniqligini oshirish va tuzilishini murakkablashtirish uni tannarxini oshishiga olib keladi. Shuning uchun ham zagotovka olishni optimal usuli zagotovka tannarxi kam bo‘lgandagi usulidir.

Zagotovka olishni mavjud usullarini tahlil qilib, berilgan ishlab chiqarish sharoitida detalimiz uchun zagotovkani qizdirib shtamplash yo‘li bilan olamiz.



## 2.2. Texnologik jarayon marshrutini ishlab chiqish

2.1-jadval

Operatsiya №	O'tish №	Operatsiya va o'tishlar nomi va mazmuni.	Dastgoh	Moslama	Kesuvchi asbob
1	2	3	4	5	6
005	Tokarlik		1K62 tokarlik vintqirgish	Ikki kulachokli patron	Tokarlik ostidan kesuvchi egilgan keskich GOST 18880-73
	1	A torets yuza yo'nilsin			Tokarlik o'tuvchi tirgak keskich GOST 18879-73
	2	B yuza yo'nilsin			Tokarlik o'tuvchi egilgan keskich GOST 18868-73
	3	C yuza yo'nilsin			
	4	2x45° faska ochilsin			
010	Vertikal frezalash RDB		6H13Φ3-2 vertikal frezalash RDB	Maxsus moslama	Uch freza GOST 17026-71 d=40 z=6
	1	F yuza frezalansin			
015	Gorizantal frezalash		6Π80Γ gorizantal frezalash	Maxsus moslama	Uch tomonlama disk freza GOST 5808-77 D=315 z=20
	1	E1, E2, D1, D2 yuzalar frezalansin			
020	Vertikal parmalash		2A135 vertikal parmalash	Maxsus konduktor	Spiral parma GOST 886-77
	1	G teshik parmalansin			Sekovka GOST 26258-87
	2	H teshik sekovkalansin			Zenkovka GOST 14593-80
	3	J yuza zenkovkalansin			Zenker GOST 12489-71 z=3
	4	G teshik zenkerlansin			

	5	G teshik razvyortkalansin			Razvyortka GOST 11172-70
025	Vertikal parmalash		2A135 vertikal parmalash	Maxsus konduktor	Spiral parma GOST 886-77
	1	I teshik parmalansin			Zenker GOST 12489-71 z=3
	2	I teshik zenkerlansin			Razvyortka GOST 11172-70
	3	I teshik razvyortkalansin			

### 2.3. Zagatovkaga ishlov berishda qo'yim hisobi

1. Diametri Ø25H7 mm uzunligi l=60mm bo'lgan I teshik uchun qo'yim miqdorini hisoblaymiz. Zagatovka shtamlash usuli bilan olingan. Yuza g'adarbudurligi  $R_z=1.25$  mkm.

Qo'yimlarni aniqlash quyidagi formula yordamida topiladi [3, 62 b.]:

$$2Z_{\min} = 2(R_{i-1} + Z_{i-1} + \sqrt{\rho_{i-1}^2 + \varepsilon_i^2}) \quad ([2] \text{ 62-bet})$$

Zagatovka uchun profilning notekisliklari balandligi  $R$  va sirt qatlamdagi nuqsonlar chuqurligini  $T$  jadvaldan olamiz:

1) Zenkerlash uchun:  $R=150$  mkm;  $T=200$  mkm;

2) Razvyortkalash uchun:  $R=100$  mkm;  $T=100$  mkm;

Fazoviy chetlanishlarning umumiy yig'indisi yo'nish jarayoni uchun quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\rho_{i-1} = \sqrt{\rho_{kor}^2 + \rho_{sm}^2}$$

$$\rho_{kor} = \Delta_k \cdot l = 1 \cdot 70 = 70 \text{ mkm} = 0,07 \text{ mm} \quad \Delta_K=1 \quad ([2] \text{ 71 bet})$$

$$\rho_{sm} = \delta = 0.62 \quad ([1] \text{ 84 bet})$$

$$\rho_1 = \sqrt{\rho_{kor}^2 + \rho_{sm}^2} = \sqrt{0.07^2 + 0.62^2} = 0.62 \text{ mm}$$

Detalni moslamada o'rnatish xatoligini aniqlaymiz:

$$\varepsilon_i = \sqrt{\varepsilon_6^2 + \varepsilon_3^2}$$

Bazalash xatoligini aniqlaymiz:

$$\varepsilon_6 = 0;$$

Maxkamlash xatoligini aniqlaymiz

$$\varepsilon_3 = 110 \text{ mkm.} \quad [2, 78 \text{ b.}]$$

$$\varepsilon_i = \sqrt{0^2 + 110^2} = 110 \text{ mkm}$$

Qo'yimlarning minimal miqdorini hisoblaymiz:

$$\text{- Zenkerlash uchun } 2Z_{\min_3} = 2(150 + 200 + \sqrt{620^2 + 110^2}) = 1960 \text{ mkm}$$

$$\text{- Razvyortkalash uchun } 2Z_{\min_2} = 2(100 + 100) = 400 \text{ mkm}$$

**Jadval usuli bilan mexanik ishlov berish uchun qoldirilgan qo'yim miqdorini hisobi (hamma qolgan yuzalar uchun). [7, 157-183 b, 7.1-7.34 jad.]**

Ishlov beriladigan yuza	Qo'yim miqdori				Umumiy qo'yim miqdori
	Qora	Yarimtoza	Toza	Jilvirlash	
A	1.3				1.3
B	1.1				1.1
C	1.1				1.1
D1,D2,E1,E2	0.8				0.8
F	0.8				0.8

**2.4.Kesish maromlarini hisoblash.**

**Tokarlik operatsiyasi**

**1-o'tish.**  $\varnothing 52.2\text{mm}$ ,  $l=26.1\text{mm}$ li A torets yuza yo'nilsin. Dastgoh: 1K62 tokarlik vintqirgish. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=1.3\text{ mm}$ . Zagotovka materiali CT45,  $\sigma_B=598\text{ MPa}$ .

Kesuvchi asbob: Tokarlik ostidan kesuvchi egilgan keskich GOST 18880-73, kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 20\text{ mm}$ ,  $l=160\text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ; \alpha = 12^\circ; \lambda = 0, \varphi = 45^\circ, \varphi_1 = 45^\circ, r=1\text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1.Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda  $t=h=1.3\text{ mm}$

2.Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o=0.4-0.5\text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0.4\text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3.Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T=30\dots 60\text{ daqiqa}$  ([3], 46-b)

$T=60\text{ daqiqa}$  qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=340, x=0.15, y=0.45, m=0.20$$
 ([3], 2.19-j, 46-b)

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_r \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v=1; K_r=1 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0.9 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v=1 \cdot 0.9 \cdot 1,25=1,13$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 1.3^{0.15} \cdot 0.4^{0.45}} \cdot 1,13 = 246m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 246}{3.14 \cdot 52,2} = 1501 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1600 daq^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 52,2 \cdot 1600}{1000} = 262m / daq$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0,84$$

$$K_{\phi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,84 \cdot 0,93 = 0,78$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1.3^1 \cdot 0.4^{0.75} \cdot 262^{-0.15} \cdot 0.78 = 664 N$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; kVt$$

$$N_{kes} = \frac{664 \cdot 262}{60 \cdot 1020} = 2,84 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 10 \cdot 0.75 = 7,5 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $2,84 \leq 7,5$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L = l + y + \Delta$

bu yerda:  $y = 1.2 \text{ mm}$ , keskichni botishi

$\Delta = 2 \text{ mm}$ , keskichni chiqishi

$l = 26,1$ ,  $i = 1$  o'tishlar soni

$$L = 26,1 + 1.2 + 2 = 29,3 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{29,3 \cdot 1}{1600 \cdot 0.4} = 0.05 \text{ daq}$$

**2-o'tish.**  $\varnothing 50 \text{ mm}$ ,  $l = 55 \text{ mml}$  B yuza yo'nilsin. Dastgoh: 1K62 tokarlik vintqirgish. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h = 1.1 \text{ mm}$ . Zagotovka materiali CT45,

$$\sigma_b = 598 \text{ MPa.}$$

Kesuvchi asbob: Tokarlik o'tuvchi tirgak keskich GOST 18879-73, kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 20 \text{ mm}$ ,  $l = 160 \text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ; \alpha = 12^\circ; \lambda = 0, \varphi = 45^\circ, \varphi_1 = 45^\circ, r = 1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda  $t = h = 1.1 \text{ mm}$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.4 - 0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0.4 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T = 30 \dots 60 \text{ daqiqa}$  ([3], 46-b)

$T = 60 \text{ daqiqa}$  qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 340, x = 0.15, y = 0.45, m = 0.20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$  - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_r \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v=1; K_T=1 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left(\frac{750}{598}\right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0.9 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v=1 \cdot 0.9 \cdot 1,25=1,13$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 1.1^{0.15} \cdot 0.4^{0.45}} \cdot 1,13 = 252m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 252}{3.14 \cdot 50} = 1607 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1600 daq^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 50 \cdot 1600}{1000} = 251m / daq$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mp} = \left(\frac{\sigma_B}{750}\right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left(\frac{598}{750}\right)^{0.75} = 0,84$$

$$K_{\varphi p}=1, K_{\gamma p}=1, K_{\lambda p}=1, K_{rp}=0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,84 \cdot 0,93 = 0,78$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1 \cdot 1^1 \cdot 0.4^{0.75} \cdot 251^{-0.15} \cdot 0.78 = 565 N$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; kVt$$

$$N_{kes} = \frac{565 \cdot 251}{60 \cdot 1020} = 2,32 kVt$$

8.Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 10 \cdot 0.75 = 7,5 \text{ kvt};$$

$$N_{kes} \leq N_{shp}, 2,32 \leq 7,5, \text{ yani ishlov berish mumkin.}$$

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L = l + y + \Delta$

bu yerda:  $y = 1.2 \text{ mm}$ , keskichni botishi

$\Delta = 2 \text{ mm}$ , keskichni chiqishi

$l = 55$ ,  $i = 1$  o'tishlar soni

$$L = 55 + 1.2 + 2 = 58,3 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{58,3 \cdot 1}{1600 \cdot 0.4} = 0.09 \text{ daq}$$

**3-o'tish.**  $\varnothing 55 \text{ mm}$ ,  $l = 5 \text{ mm}$ li C yuza yo'nilsin. Dastgoh: 1K62 tokarlik vintqirgish. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h = 1.1 \text{ mm}$ . Zagotovka materiali CT45,  $\sigma_B = 598 \text{ MPa}$ .

Kesuvchi asbob: Tokarlik o'tuvchi tirgak keskich GOST 18879-73, kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 20 \text{ mm}$ ,  $l = 160 \text{ mm}$

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ; \alpha = 12^\circ; \lambda = 0, \varphi = 45^\circ, \varphi_1 = 45^\circ, r = 1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda  $t = h = 1.1 \text{ mm}$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.4 - 0.5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0.4 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T = 30 \dots 60 \text{ daqiqa}$  ([3], 46-b)

$T = 60 \text{ daqiqa}$  qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 340, x = 0.15, y = 0.45, m = 0.20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_r \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v = 1; K_r = 1 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv}=0.9 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v=1 \cdot 0.9 \cdot 1,25=1,13$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 1.1^{0.15} \cdot 0.4^{0.45}} \cdot 1,13 = 252m / daq$$

4.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 252}{3.14 \cdot 55} = 1460 daq^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1600 daq^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 50 \cdot 1600}{1000} = 276 m / daq$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$$C_p=300, x=1, y=0.75, n=-0.15 \quad ([3], 2.24-j, 50-b)$$

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\varphi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0,84$$

$$K_{\varphi p} = 1, K_{\gamma p} = 1, K_{\lambda p} = 1, K_{rp} = 0.93 \quad ([3], 2.25-j, 52-b)$$

$$K_p = 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,84 \cdot 0,93 = 0,78$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1 \cdot 1^1 \cdot 0.4^{0.75} \cdot 276^{-0.15} \cdot 0.78 = 557 N$$

7.Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; kVt$$

$$N_{kes} = \frac{557 \cdot 276}{60 \cdot 1020} = 2,52 kVt$$

8.Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta_c = 10 \cdot 0.75 = 7,5 kvt;$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $2,52 \leq 7,5$ , yani ishlov berish mumkin.

9.Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$



Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$

bu yerda:  $y=1.2$  mm, keskichni botishi

$\Delta=2$  mm, keskichni chiqishi

$l=5$ ,  $i=1$  o'tishlar soni

$L=5+1.2+2=8,2$  mm

$$T_a = \frac{8,2 \cdot 1}{1600 \cdot 0,4} = 0,01 \text{ daq}$$

**4-o'tish.**  $2 \times 45^\circ$  faska ochilsin. Dastgoh: 1K62 tokarlik vintqirgish. Ishlov berishga qoldirilgan qo'yim miqdori  $h=1.1$  mm. Zagotovka materiali CT45,  $\sigma_B=598$  MPa.

Kesuvchi asbob: Tokarlik o'tuvchi egilgan keskich GOST 18868-73, kesuvchi qismi materiyali T15K6, keskich tanasi materiyali Polat 40, ko'ndalang kesim yuzasi  $16 \times 20$  mm,  $l=160$  mm

Geometrik elementlari:

$$\gamma = 10^\circ; \alpha = 12^\circ; \lambda = 0, \varphi = 45^\circ, \varphi_1 = 45^\circ, r=1 \text{ mm}$$

Kesish maromini belgilaymiz.

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz. Bir marta o'tish bilan qo'yim miqdorini olib tashlashda  $t=h=1.1$  mm

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0,4-0,5 \text{ mm/ayl. ([3], 2.13-j, 42-b)}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o=0,4$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3. Kesishda asosiy harakat tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v$$

T-keskich turg'unlik davri,  $T=30 \dots 60$  daqiqa ([3], 46-b)

$T=60$  daqiqa qabul qilamiz

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v=340, x=0,15, y=0,45, m=0,20 \text{ ([3], 2.19-j, 46-b)}$$

To'g'rilash koeffitsientlarini e'tiborga olamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_f \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \text{ ([3], 2.1-j, 34-b)}$$

$$n_v=1; K_f=1 \text{ ([3], 2.2-j, 35-b)}$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0,9 \text{ ([3], 2.5-j, 37-b)}$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ ([3], 2.6-j, 37-b)}$$

$$K_v = 1 \cdot 0,9 \cdot 1,25 = 1,13$$

$$V = \frac{340}{60^{0.20} \cdot 1.1^{0.15} \cdot 0.4^{0.45}} \cdot 1,13 = 252 \text{ m / daq}$$

4. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 252}{3.14 \cdot 55} = 1460 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=1600 \text{ daq}^{-1}$  ni qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 50 \cdot 1600}{1000} = 276 \text{ m / daq}$$

6. Kesish kuchi  $P_z$  ni quyidagi formuladan hisoblab topamiz:

$$P_z = 10 \cdot C_p \cdot t^x \cdot S^y \cdot v^n \cdot K_p$$

Mavjud ishlov berish sharoiti uchun:

$C_p=300$ ,  $x=1$ ,  $y=0.75$ ,  $n=-0.15$  ([3], 2.24-j, 50-b)

Kesish kuchidagi to'g'rilash koeffitsienti

$$K_p = K_{mp} \cdot K_{\phi p} \cdot K_{\gamma p} \cdot K_{\lambda p} \cdot K_{rp}$$

$K_{mp}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0,84$$

$K_{\phi p}=1$ ,  $K_{\gamma p}=1$ ,  $K_{\lambda p}=1$ ,  $K_{rp}=0.93$  ([3], 2.25-j, 52-b)

$$K_p = 1 \cdot 1 \cdot 1 \cdot 0,84 \cdot 0,93 = 0,78$$

$$P_z = 10 \cdot 300 \cdot 1 \cdot 1^1 \cdot 0.4^{0.75} \cdot 276^{-0.15} \cdot 0.78 = 557 \text{ N}$$

7. Kesish uchun sarflangan quvvat:

$$N_{kes} = \frac{P_z \cdot V_{xaq}}{60 \cdot 1020}; \text{ kVt}$$

$$N_{kes} = \frac{557 \cdot 276}{60 \cdot 1020} = 2,52 \text{ kVt}$$

8. Dastgoh yuritmasi quvvati yetarli ekanligini tekshiramiz:

$$N_{shp} = N_d \cdot \eta = 10 \cdot 0.75 = 7,5 \text{ kvt};$$

$N_{kes} \leq N_{shp}$ ,  $2,52 \leq 7,5$ , yani ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqtni hisoblaymiz.

$$T_a = \frac{L \cdot i}{n \cdot S}$$

Keskichni ishchi yurish uzunligi  $L=l+y+\Delta$

bu yerda:  $y=1.2 \text{ mm}$ , keskichni botishi

$\Delta=2 \text{ mm}$ , keskichni chiqishi

$l=2$ ,  $i=1$  o'tishlar soni

$$L=2+1.2+2=5,2 \text{ mm}$$

$$T_a = \frac{5,2 \cdot 1}{1600 \cdot 0,4} = 0,008 \text{ daq}$$

### 010 Vertikal frezalash RDB operatsiyasi

**1-o'rnatish.** F yuza eni  $B=40$  mm, uzunligi  $l=248,4$  mm o'lchamda frezalansin. Qo'yim miqdori  $h=0,8$  mm

Dastgoh 6H13Φ3-2 vertikal frezalash RDB. Ishlov berilayotgan material CT 45,  $\sigma_B=598$  MPa.

Kesuvchi asbob Uch freza GOST 17026-71  $d=40$   $z=6$ , GOST 17026-71. Kesuvchi qismi materiali P6M5;

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$$t=h=0,8 \text{ mm}$$

2. Surish miqdori

$$S_z=0,08-0,05 \text{ mm/ayl} \quad ([3], 2.80-j, 88-b) \text{ (Disk freza uchun ( 2.79-j, 87-b))}$$

$$S_z=0,05 \text{ qabul qilamiz}$$

3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v = \frac{46,7 \cdot 40^{0,45}}{80^{0,33} \cdot 0,8^{0,5} \cdot 0,05^{0,5} \cdot 40^{0,1} 6^{0,1}} \cdot 1 = 167;$$

T – frezani turg'unlik davri,  $T=80$  daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$  - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$ ;  $K_f=1$  ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$  - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{nv}=0,8 \quad ([3], 2.5-j, 37-b)$$

$K_{uv}$  - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$$K_v = 1,25 \cdot 0,8 \cdot 1 = 1$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$$C_v = 46,7, q=0,45, x=0,5, y=0,5, u=0,1, p=0, m=0,33 \quad ([3], 2.84-j, 90-b)$$

m/daq

4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 167}{3,14 \cdot 40} = 1331$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=1250$  ayl/daq qabul qilamiz.

5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xqq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 40 \cdot 1250}{1000} = 157$$

6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0,05 \cdot 6 \cdot 1250 = 375$$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 400$  mm/daq qabul qilamiz.

$$\text{U xolda } S_z = \frac{S_M}{z \cdot n} = \frac{400}{6 \cdot 1250} = 0,05$$

7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp} = \frac{10 \cdot 68,2 \cdot 0,8^{0,86} \cdot 0,05^{0,72} \cdot 40^1 \cdot 6}{40^{0,86} \cdot 1250^0} \cdot 0,93 = 638;$$

$K_{mp}$ - to'g'rilash koeffitsenti:

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0,3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0,3} = 0,93$$

$$C_p = 68,2, \quad x = 0,86, \quad y = 0,72, \quad n = 1, \quad q = 0,86, \quad w = 0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z v}{1020 \cdot 60} = \frac{638 \cdot 157}{1020 \cdot 60} = 1,64 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 7,5 \cdot 0,85 = 6,375 \text{ kVt.}$$

$$1,64 \leq 6,375$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta = 248,4 + 20 + 3 = 271,4$$

$$l = 248,4 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left( 40 - \sqrt{40^2 - 40^2} \right) = 20 \text{ mm}$$

$$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm qabul qilamiz.}$$

$$T_{as} = \frac{271,4}{1250} = 0,2 \text{ daq}$$

### 015. Gorizantal frezalash opeatsiyasi

**1-o'rnatish.** D1, D2, E1, E2 yuzalar eni  $B = 60$  mm, uzunligi  $l = 60$  mm o'lchamda frezalansin. Qo'yim miqdori  $h = 0,8$  mm

Dastgoh 6П80Г gorizantal frezalash. Ishlov berilayotgan material CT 45,  $\sigma_B = 598$  MPa. Kesuvchi asbob Uch tomonlama disk freza GOST 5808-77  $D = 315$   $z = 20$  Kesuvchi qismi materiali BK8;

1. Kesish chuqurligi va frezalash enini aniqlaymiz.

$$t = h = 0,8 \text{ mm}$$

## 2. Surish miqdori

$S_z=0.08-0.05$  mm/ayl ([3], 2.80-j, 88-b) (Disk freza uchun ( 2.79-j, 87-b))

$S_z=0.05$  qabul qilamiz

## 3. Kesishdagi asosiy harakat tezligini aniqlaymiz (m/daq)

$$v = \frac{C_v D^q}{T^m t^x \cdot S_z^y B^u z^p} \cdot K_v = \frac{46,7 \cdot 315^{0,45}}{80^{0,33} \cdot 0,8^{0,5} \cdot 0,05^{0,5} \cdot 60^{0,1} 20^{0,1}} \cdot 1 = 360;$$

T – frezani turg'unlik davri, T=80 daq ([3], 2.85-j, 93-b)

$K_v$  - To'g'rilash koeffitsienti

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{nv} \cdot K_{uv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=1$ ;  $K_f=1$  ([3], 2.2-j, 35-b)

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^1 = 1,25$$

$K_{nv}$ - Ishlov berilayotgan yuza xolatini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{nv}=0.8$  ([3], 2.5-j, 37-b)

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$K_{uv} = 1$  ([3], 2.6-j, 37-b)

$$K_v = 1.25 \cdot 0.8 \cdot 1 = 1$$

Formuladagi koeffitsientlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz

$C_v=46.7$ ,  $q=0.45$ ,  $x=0.5$ ,  $y=0.5$ ,  $u=0.1$ ,  $p=0$ ,  $m=0.33$  ([3], 2.84-j, 90-b)

m/daq

## 4. Shpindel aylanishlar chastotasini aniqlaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 360}{3,14 \cdot 315} = 364$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib  $n=400$  ayl/daq qabul qilamiz.

## 5. Kesish jarayonida asosiy harakatning xaqiqiy tezligi:

$$V_{xaq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 315 \cdot 400}{1000} = 396$$

## 6. Tishlar bo'yicha surish tezligi

$S_M = S_z \cdot z \cdot n = 0.05 \cdot 20 \cdot 400 = 400$

Dastgoh pasportidan  $S_M = 500$  mm/daq qabul qilamiz.

$$U \text{ xolda } S_z = \frac{S_M}{z \cdot n} = \frac{400}{20 \cdot 400} = 0.05$$

## 7. Kesish jarayonida ta'sir etayotgan kuch:

$$P_z = \frac{10 C_p t^x s^y B^u z}{D^q n^w} K_{mp} = \frac{10 \cdot 68,2 \cdot 0,8^{0,86} \cdot 0,05^{0,72} \cdot 60^1 \cdot 20}{315^{0,86} \cdot 400^0} \cdot 0,93 = 516;$$

$K_{mp}$ - to'g'rilash koeffitsienti:

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.3 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.3} = 0,93$$

$$C_p=68.2, \quad x=0.86, \quad y=0.72, \quad n=1, \quad q=0.86, \quad w=0 \quad ([3], 2.86-j, 94-b)$$

8. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{P_z \cdot v}{1020 \cdot 60} = \frac{516 \cdot 396}{1020 \cdot 60} = 3,34 \text{ kVt};$$

Dastgoh quvvati bo'yicha solishtiramiz

$$N_{shp} = N_d \cdot \mu = 7.5 \cdot 0,85 = 6.375 \text{ kVt.}$$

$$3.34 \leq 6.375$$

Demak ishlov berish mumkin.

9. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{S_M}$$

$$L = l + y + \Delta = 60 + 3 + 3 = 66$$

$$l = 60 \text{ mm,}$$

$$y = 0,5 \left( D - \sqrt{D^2 - B^2} \right) = 0,5 \left( 315 - \sqrt{315^2 - 60^2} \right) = 3 \text{ mm}$$

$\Delta = 1 \dots 5 \text{ mm. } \Delta = 3 \text{ mm}$  qabul qilamiz.

$$T_{as} = \frac{66}{400} = 0,2 \text{ daq}$$

### 020. Vertikal parmalash operatsiyasi.

**1-o'tish.** G teshik  $\varnothing 18 \text{ mm}$   $l=60 \text{ mm}$  o'lchamda parmalansin. Dastgoh: 2A135 vertikal parmalash. Zagotovka materiali CT 45,  $\sigma_B=598 \text{ MPA}$  ga teng. Kesuvchi asbob va uning geometrik parametrlari: Spiral parma GOST 886-77  $D=18 \text{ mm}$ , kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

Geometrik o'lchamlari

$$2\varphi = 118^\circ; \quad 2\varphi_0 = 70^\circ; \quad \psi = 30^\circ; \quad \alpha = 11^\circ \quad ([9] 203 \text{ bet, } 44 \text{ jad})$$

1. Kesish chuqurligini belgilaymiz.

$$t = D/2 = 18/2 = 9 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlaymiz.

$$S_o = 0.20 - 0.25 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.38-j, 62-b)$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0.2 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Parmani turg'unlik davrini aniqlaymiz.

$$T = 25 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlaymiz.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot S^y} \cdot K_v \quad \text{m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarni yozib olamiz.

$$C_v = 7, \quad q = 0.40, \quad y = 0.70, \quad m = 0.20 \quad ([3], 2.41-j, 64-b)$$

To'g'rilash koeffitsientini topamiz.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_f \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v = -0.9; K_f = 1 \quad ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$$K_{mv} = 1 \cdot \left( \frac{750}{598} \right)^{-0.9} = 0.82$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - Teshik uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

$$K_v = 0.82 \cdot 1 \cdot 1 = 0.82$$

$$V = \frac{7 \cdot 18^{0.4}}{25^{0.2} \cdot 0.2^{0.7}} \cdot 0.82 = 29 \text{ m/daq}$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 29}{3.14 \cdot 18} = 523 \text{ daq}^{-1}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib haqiqiy aylanishlar chastotasi  $n=530$  ayl/daq qabul qilamiz.

6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xq} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 18 \cdot 530}{1000} = 30 \text{ m/daq}$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

Burovchi moment uchun:

$$C_m = 0.0345; q = 2.0; y = 0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = 0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0.84$$

U xolda:

$$M_{kp} = 10 \cdot 0.0345 \cdot 18^{2.0} \cdot 0.2^{0.8} \cdot 0.84 = 26 \text{ N}\cdot\text{m}$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblaymiz:

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p;$$

$$C_p = 68; q = 1.0; y = 0.7; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

U xolda:

$$P_0 = 10 \cdot 68 \cdot 18^{1.0} \cdot 0.2^{0.7} \cdot 0.84 = 3333 \text{ N}$$

9. Kesishdagi quvvat:

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{26 \cdot 530}{9750} = 1,41 \text{ kvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L}{n \cdot s} = \frac{68}{530 \cdot 0,2} = 0,6$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 60 + 1 + 1 = 62 \text{ mm};$$

bu yerda:  $y = 1 \text{ mm}$ , parmani botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, parmani chiqishi, } l = 60 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

**2-o'tish.** H teshik  $\varnothing 30 \text{ mm}$   $l = 15 \text{ mm}$  o'lchamda sekovkalansin . Kesuvchi asbob Zenkovka GOST 14593-80, kesuvchi qism material, tezkesar po'lat P6M5.

1. Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} = \frac{30-18}{2} = 6 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_o = 0,5-0,6 \text{ mm/ayl. } ([3], 2.39-j, 63-b) \text{ (Razvyortkalash uchun } ([3], 2.40-j, 63-b))$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_o = 0,5 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz. } ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v = \frac{16,3 \cdot 30^{0,3}}{30^{0,3} \cdot 6^{0,2} \cdot 0,5^{0,5}} \cdot 0,82 = 13 \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$$C_v = 16,3, q = 0,30, x = 0,2; y = 0,50, m = 0,30 \text{ } ([3], 2.42-j, 65-b)$$

To'g'rilash koeffitsentini topish.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsent;

$$K_{mv} = K_r \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} = \left( \frac{750}{598} \right)^{-0,9} = 0,82 \text{ } ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$$n_v = -0,9; K_r = 1 \text{ } ([3], 2.2-j, 35-b)$$

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \text{ } ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - zenker uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv} = 1 \text{ } ([3], 2.44-j, 67-b)$$

5. Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 13}{3,14 \cdot 30} = 140 \text{ ayl/daq}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n = 140 \text{ ayl/daq}$  qabul qilamiz.



6. Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3,14 \cdot 30 \cdot 140}{1000} = 13$$

7. Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p = 10 \cdot 0,09 \cdot 30^1 \cdot 0,5^{0,8} \cdot 0,84 = 13; \text{ zenkovka uchun}$$

$$C_m = 0,09; q = 1,0; y = 0,8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p = K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n = 0,75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0,75} = 0,84$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p = 10 \cdot 67 \cdot 30^1 \cdot 0,5^{0,65} \cdot 0,84 = 10760;$$

$$C_p = 67; q = 1; y = 0,65; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

9. Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{13 \cdot 140}{9750} = 0,19 \text{ kvvt};$$

10. Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L \cdot i}{n \cdot s} = \frac{17 \cdot 1}{140 \cdot 0,5} = 0,24 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 15 + 1 + 1 = 17 \text{ mm};$$

bu yerda:  $y = 1$  mm, zenkovkani botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, zenkovkani chiqishi}$$

$$l = 15 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

**3-o'tish.** G teshik  $\varnothing 19,75$  mm  $l = 45$  mm o'lchamda zenkerlansin . Kesuvchi asbob: Zenker GOST 12489-71  $z = 3$ , kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

2. Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D-d}{2} = \frac{19,75-18}{2} = 0,88 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_0 = 0,5-0,6 \text{ mm/ayl.} \quad ([3], 2.39-j, 63-b) \text{ (Razvyortkalash uchun ([3], 2.40-j, 63-b))}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_0 = 0,5$  mm/ayl ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 30 \text{ daqiqa qabul qilamiz.} \quad ([3], 2.43-j, 66-b)$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v = \frac{16.3 \cdot 19.75^{0.3}}{30^{0.3} \cdot 0.88^{0.2} \cdot 0.5^{0.5}} \cdot 0.82 = 17 \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

$C_v=16.3$  ,  $q=0.30$ ,  $x=0.2$ ;  $y=0.50$ ,  $m=0.30$  ([3], 2.42-j, 65-b)

To'g'rilash koeffitsientini topish.

$$K_v = K_{mv} \cdot K_{uv} \cdot K_{lv}$$

$K_{mv}$ - ishlov berilayotgan materialni xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{mv} = K_{\Gamma} \left( \frac{750}{\sigma_B} \right)^{n_v} = \left( \frac{750}{598} \right)^{-0.9} = 0.82 \quad ([3], 2.1-j, 34-b)$$

$n_v=-0.9$ ;  $K_{\Gamma}=1$  ([3], 2.2-j, 35-b)

$K_{uv}$ - Kesuvchi asbob kesuvchi qismi materialini xisobga oluvchi koeffitsient;

$$K_{uv} = 1 \quad ([3], 2.6-j, 37-b)$$

$K_{lv}$ - zenker uzunligini xisobga oluvchi koeffitsient

$$K_{lv}=1 \quad ([3], 2.44-j, 67-b)$$

5.Shpindelni aylanishlar chastotasini hisoblaymiz.

$$n = \frac{1000V}{\pi D} = \frac{1000 \cdot 17}{3.14 \cdot 19.75} = 276 \text{ ayl/daq}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha aylanishlar chastotasini korektirovka qilib xaqiqiy aylanishlar chastotasi  $n= 275$  ayl/daq qabul qilamiz.

6.Kesish jarayonida asosiy harakatning haqiqiy tezligi:

$$V_{xak} = \frac{\pi D n}{1000} = \frac{3.14 \cdot 19.75 \cdot 275}{1000} = 17$$

7.Burovchi momentni aniqlaymiz:

$$M_{kp} = 10 \cdot C_m \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p = 10 \cdot 0.09 \cdot 19.75^1 \cdot 0.5^{0.8} \cdot 0.84 = 8.58; \quad \text{zenkerlash}$$

uchun

$$C_m=0.09; q=1.0; y=0.8; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

$$K_p=K_{mp}$$

$$K_{mp} = \left( \frac{\sigma_B}{750} \right)^n \quad n=0.75 \quad ([3], 2.9-j, 38-b)$$

$$K_{mp} = \left( \frac{598}{750} \right)^{0.75} = 0.84$$

8. O'q bo'yicha kuchni hisoblash

$$P_0 = 10 \cdot C_p \cdot D^q \cdot S^y \cdot K_p = 10 \cdot 67 \cdot 19.75^1 \cdot 0.5^{0.65} \cdot 0.84 = 7084;$$

$$C_p=67 ; q=1 ; y=0,65 ; \quad ([3], 2.45-j, 67-b)$$

9.Kesishdagi quvvat :

$$N_e = \frac{M_{kp} n}{9750} = \frac{8.58 \cdot 275}{9750} = 0.24 \text{ kvvt};$$

10.Asosiy vaqt:

$$T_{as} = \frac{L \cdot i}{n \cdot s} = \frac{47 \cdot 1}{275 \cdot 0,5} = 0,34 \text{ daq}$$

Bu yerda :

$$L = y + \Delta + l = 45 + 1 + 1 = 47 \text{ mm};$$

bu yerda:  $y = 1 \text{ mm}$ , zenkerni botishi

$$\Delta = 1 \text{ mm, zenkerni chiqishi}$$

$$l = 45 \text{ mm, teshik uzunligi.}$$

**4-o'tish.** G teshik  $\varnothing 19,94 \text{ mm}$   $l = 45 \text{ mm}$  o'lchamda razvyortkalansin .  
Kesuvchi asbob: Razvyortka GOST 11172-70, kesuvchi qism materiali, tezkesar po'lat P6M5.

3. Kesish chuqurligini belgilash.

$$t = \frac{D - d}{2} = \frac{19,94 - 19,75}{2} = 0,1 \text{ mm.}$$

2. Surish qiymatini aniqlash.

$$S_0 = 0,5 - 0,6 \text{ mm/ayl. (Razvyortkalash uchun ([3], 2.40-j, 63-b))}$$

Dastgoh pasporti bo'yicha korektirovkalab  $S_0 = 1,1 \text{ mm/ayl}$  ni qabul qilamiz.

3. Zenkerni turg'unlik davrini aniqlash.

$$T = 40 \text{ daqiqa qabul qilamiz. ([3], 2.43-j, 66-b)}$$

4. Kesishda asosiy harakatni tezligini aniqlash.

$$v = \frac{C_v \cdot D^q}{T^m \cdot t^x \cdot S^y} \cdot K_v = \frac{16,3 \cdot 19,94^{0,3}}{40^{0,3} \cdot 0,1^{0,2} \cdot 1,1^{0,5}} \cdot 0,82 = 7 \text{ m/daq}$$

Formuladagi koeffitsentlar va daraja ko'rsatkichlarini yozib olamiz.

